

FARIDA AFRO'Z TASBEHLARIDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR
UYG'UNLIGI**Topildiyeva Feruza Raximjonovna**

Fakultetlararo tillar kafedrasida katta o'qituvchisi.

+99893-547-15-88 topildievaferuza@gmail.com

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20356613>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin vakili bo'lgan shoira Farida Afro'z tasbehlari lingvokulturologik birliklar, ya'ni metaforalarning badiiy-funksional o'rni, qo'llanishi, ahamiyati haqida fikr yuritiladi va tasbehlardan namunalar tahlili beriladi. Shoira she'riyatidagi lingvistik kategoriya, mentalitet, obrazlilik, misollar vositasida berilayotgan chuqur ma'no qatlamlariga ega bo'lgan lingvokulturologik birlik, ifodalar, shuningdek ularda jamiyat, inson, tabiat munosabatlarining aks etishi, o'ziga xos lingvomadaniyat mujassamligi misralarda qo'llanilgan metaforalar orqali yoritib beriladi.

Farida Afro'z tasbehlari misolida xalqimizning uzoq yillik tajribasi natijasida yaratilgan barqaror birliklarning shoira meniga xos tarzda qo'llanilishi, uyg'unligi va ularning tahliliy ifodasi, zamonaviy she'riyatdagi mentalitetga xos xususiyatlari izohi va ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik kategoriya, mentalitet, Farida Afro'z, frazeologik boylik, metafora, badiiy ifoda, tahlil.

Abstract. This article discusses linguocultural units, namely metaphors, their artistic-functional role, usage, and significance in the tasbehs of the poet Farida Afro'z, a prominent representative of modern Uzbek poetry, and provides an analysis of examples from her tasbehs.

Linguistic categories, mentality, imagery in the poet's work, linguocultural units and expressions with deep semantic layers conveyed through examples, as well as the reflection of the relationships between society, human beings, and nature, and the embodiment of a specific linguoculture are revealed through the metaphors used in the lines. Based on the example of Farida Afro'z's tasbehs, the article highlights the use of stable units created as a result of the long-term experience of our people in the poet's individual style, their analytical expression, the characteristics of mentality in modern poetry, and their significance.

Keywords: linguistic category, mentality, Farida Afro'z, phraseological richness, metaphor, artistic expression, analysis.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвокультурологические единицы, а именно метафоры, их художественно-функциональная роль, употребление и значение в тасбехах поэтессы Фариды Афроз, яркой представительницы современной узбекской поэзии, а также приводится анализ примеров из её тасбехов. Лингвистические категории, менталитет, образность в поэзии поэтессы, лингвокультурологические единицы и выражения, обладающие глубокими смысловыми слоями, передаваемыми посредством примеров, а также отражение взаимоотношений общества, человека и природы и воплощение своеобразной лингвокультуры раскрываются через метафоры, использованные в строках. На примере тасбехов Фариды Афроз освещается использование устойчивых единиц, созданных в результате многолетнего опыта нашего народа, в индивидуальном стиле поэтессы, их аналитическое выражение, особенности менталитета в современной поэзии, а также их значение.

Ключевые слова: лингвистическая категория, менталитет, Фарида Афроз, фразеологическое богатство, метафора, художественное выражение, анализ.

Odatda o'zbek she'riyatida mentalitet mavzusi, lingvomadaniyat tushunchasi, lingvokulturologik turg'un birliklar (maqol, matal, frazeologik birlik) kuchli poetik an'analarni ifodalashda maksimal ma'no uyg'unligini ifodalovchi milliy mentalitetni, uning shakllanishi va rivojlanish jarayonini belgilovchii ulkan manba sifatida qo'llanilib kelingan.

Ayniqsa, XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida she'riyatda yangi qarashlar, ruhiy teranlik, obrazlilikning yangicha talqini kuzatila boshlandi, to'g'risini aytganda, mentalitet millat ma'naviy qiyofasi bo'lgan milliy o'z-o'zini anglash, lingvokulturologik birliklar vositasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy xarakter fenomeni sifatida namoyon bo'ldi.

Farida Afro'z ana shu jarayonning faol ishtirokchisi sifatida zamonaviy o'zbek ayol shoirlar orasida o'ziga xos ovoz, uslub va poetik tafakkur egasi bo'lib, o'zigacha yangilikni tarannum etdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Uning she'rlari va tasbehlari lingvokulturologik birliklar metaforalarga boy, uning misralarida metaforalar muhim badiiy vosita sifatida ishlatiladi va chuqur semantik yukni o'zida mujassam etadi.

Farida Afro'z tasbehlari tilida ham lingvokulturologik birlik sifatida metaforalar ifodasi keng, unda faqatgina badiiy ziynat, balki poetik tafakkurning ifodasi sifatida jilolanib, tasvir doirasini oydinlashtirish darajasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoiraning tasbehlari go'yo lingvokulturologik birliklar inson ichki kechinmalari, xursandlik, hayajon, ruhiy iztiroblar, orzu va armonlarni, shuningdek muhit tahlilini ifodalashga xizmat qilgan. Masalan:

Sichqon-ku , iniga sig'maydi , aniq,

Qiziq, unga g'alvir ne kerak,

Nahot, elab yeydi, xarom nonini.

Ushbu tasbehda xalqimiz orasida keng qo'llaniladigan "Sichqon sig'mas iniga g'alvir bog'lar dumiga" maqolini go'yo to'g'ri talqinda izohini berganday, tasvir gavdalanadi. Aslida bu maqol o'zi kichkina, imkoniyati kam bo'lsa ham, ortiqcha dabdabani xush ko'radigan, keraksiz narsalarni xohlaydigan, o'zi bilan olib yuradigan, ya'ni o'ziga to'g'ri kelmaydigan ishlarni amalda qiladigan odamlarga hazil qabilida tanqid uchun aytilgan. Farida Afro'z bu tasbehda "Nahot elab yeydi xarom noni" deydi, sichqon iniga sig'maydi, bu aniq, ammo g'alvir unga nimaga kerak,? Uni ko'tarib yuribdi, go'yo xarom nonini elab yeydiganday deya, ayni damda ayrim kimsalarga xos keraksiz, be'mani mantiqsizlik va dabdabalarni ifoda etadi, maqolni chog'ishtirib qo'llash esa o'zgacha tus beradi. Shoira har bir misrada alohida obrazli ifoda, majoziy ma'no, falsafiy qatlam joylashtirishi bilan, o'quvchini o'z ichki olamiga yetaklaydi. Pedagogika fanlari doktori Qozoqboy Yo'ldoshev esa shunday yozadi:¹"Faridaning bir turkum tasbehlari odatda tasvirning sababini anglatishga xizmat qiladigan xulosa umuman berilmaydi. Bunday she'rda shoira xolis tasvirni keltirib, ruhiy holatni manzaralashtirish orqali betakror badiiy vaziyat yaratadi, kam so'zli misralar yordamida chuqur ma'no ifodalaydi". Haqiqatdan ham Shoira betakror badiiy vaziyat uyg'unligida lingvokulturologik birliklar metaforalar orqali shaxsiy kechinmalarini ijtimoiy ma'no bilan uyg'unlashtiradi va badiiy tafakkurning yuksak namunalari sifatida ifodalaydi.

Oh, mana,

Vaqtning tanobini tortdim,

Ko'ngil halovatini topib.

¹ Бўтаева Фарида Афрўз .Ўзимни соғиниб ...тасбеҳлар .“Шарк “нашриёти.Тошкент .2023.220-221 б.

Aslida she'riyat - bu inson qalbining eng nozik tuyg'ularini, ichki kechinmalarini obrazlar orqali ifoda etuvchi san'atdir. Yuqoridagi ikki satr orqali muallif ikki muhim tushuncha - **vaqt** va **ko'ngil halovati** o'rtasidagi murakkab va falsafiy bog'liqlikni mahorat bilan ifoda etgan. Bu misralar tasbeh bo'lib, uchlik, qisqaligi bilan qudratli, soddaligi bilan chuqur ma'nolarni kasb etadi. Tasbehning ikkinchi satrida uchraydigan **"vaqtning tanobini tortdim"** iborasi - kuchli metafora. Tanob - bu ip, arqon. Vaqt esa o'tkinchi, doimo harakatda bo'lgan, inson hukmiga bo'ysunmaydigan kuch sifatida tasvirlanadi go'yo. Shoiri esa uni ip bilan tutgandek, nazoratga olgandek tasvirlab beradi. Bu yerda **vaqt ustidan ruhiy g'alaba, ichki kuch, ichki nazorat** obrazini his qilganday bo'lamiz. Umuman olganda, sharq falsafasida vaqt ko'pincha inson ustidan hukmron kuch sifatida talqin etilgan. Xalqda azaldan bir maqol bor "Vaqt-g'animat, o'tsa-nadomat." Bu maqol ham bejiz ishlatilmagan, vaqtни bo'ysundirib bo'lmaydi. Ammo shoiri ushbu misrada vaqt oqimiga bo'ysunmay, uni "tortib", boshqarishga uringan. Bu esa insonning ongli holatda lahzani his qilish holati ifodasidir.

Ayni damda, zamonaviy hayotimizda vaqt tezlik bilan kechayotgan bir paytda, uni "ushlab qolish" bilan, vaqtни tanobini tortish bilan, ya'ni ko'ngil halovatini topishi bilan bu ruhiy yuksalishni, ruhiy osoyishtalik holatini tasvirlab berilgan deb ta'riflayman. Sharq adabiyotida "ko'ngil" - bu shunchaki qalb emas, insonning ichki olami, ruhiy pokligi, intilish va xotirjamlik joyi sifatida ifoda etiladi. Ko'ngil halovati bu - vaqt bilan yarashgan, o'z mayliga rozi, shoshilmasdan yashash holati. Bu - ichki uyg'unlik, dunyo bilan ziddiyatdan chiqish holati.

Shoiri aynan mana shu holatni topganini, his qilganini ifodasini beradi. Vaqt - doim harakatda, o'tkinchi, ko'ngil esa osoyishta, tinchlik manbai, biroq bu ziddiyat she'riy ifoda orqali uyg'unlikka aylantirilgan.

Inson har tong yangi kunni qarshi oladi, uning ixtiyoriga esa 24 soat vaqt beriladi, bu 1440 daqiqa, 86400 soniyalik fursatdir. Bu ham bejizga emas, hatto Qur'oni karimda ham tun, kunduz, tong, subhidam, shafaq, choshgoh, asr vaqtlari keltirilgan. Agar vaqtning ahamiyati haqida tafakkur qiladigan bo'lsak, vaqt bu g'animat ekanligini, o'tib ketsa uni qaytarib bo'lmasligini, uning o'rnini ham to'ldirib bo'lmasligini bilamiz. Ammo shoiraning vaqtни "tanobini tortish" metaforasi orqali ko'ngli "halovat" topgan. Bu esa o'z-o'zini anglagan, ichki uyg'unlikka erishgan yetuk shaxs obrazini ko'rsatadi. Bu misralarda zamonaviy inson uchun muhim bo'lgan ruhiy sokinlik, hozirgi zamonda yashash, vaqtни qadrlash, ko'ngilni tinglash kabi qadriyatlar mujassam. Bu misralar "Oh mana, vaqtning tanobini tortdim, ko'ngil halovatini topib" shu satrlari orqali inson va vaqt, ruhiy osoyishtalik va ichki uyg'unlik o'rtasidagi murakkab munosabat badiiy yondashuvda yoritiladi. Bu misralar insonning vaqt oqimi ichida o'zligini anglash, hayotni ongli ravishda his qilish, shoshqaloqlikdan halovat sari intilish kabi chuqur falsafiy va ruhiy tushunchalarni o'zida mujassam etgan milliy kaloritni ifoda etadi..

Lingvokultutologik birliklar, metaforalar vositasida Farida Afro'z insonning vaqtни "ushlab qolish" orzusi orqali ruhiy yuksalish, ko'ngil osoyishtaligiga erishish holatini tasvirlaydi.

Bu esa sharq madaniyatida keng o'rin olgan "ko'ngil" konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq. Misralarda poetik antiteza vositasi orqali vaqtning beqarorligi va ko'ngilning tinchligi qarama-qarshi qo'yiladi, lekin yakunda bu qarama-qarshilik uyg'unlikka aylanadi va bu ikki satr nafaqat badiiy-estetik zavq bag'ishlaydi, balki insonning ichki dunyosi, ruhiy holati va mavjudlik haqidagi falsafiy mushohadalarni ham o'quvchiga yetkazib beradi. She'riyatda metaforik ifodaning kuchi aynan shunday hayotiy va falsafiy mazmunni ramziy obrazlar orqali ifodalash va o'quvchiga yetkazish imkoniyatida namoyon bo'ladi.

Yoki yana bir misol,

**Igna bilan quduq qazidim,
Hanuzgacha yamab bo'lardim,
Dunyo degan juldur choponni.**

Ushbu tasbeh ham o'ziga xos tarzda o'quvchini o'ylashga majbur etadi. Igna bilan quduq qazish - bu ilm olish, tinmaslik, mehnat, izlanish demakdir. Bu misralarni aslida turlicha talqin qilish mumkin. Hanuzgacha yamab bo'lardim, bu ifoda bilan shoira nima demoqchi? Bu bilan ilmni tubi yo'q, endi o'rganib bo'lay deganingda yangi imkoniyatlar, muammolarga ro'baro'kelasan kishi. Shu bois mashaqqat, sabr, chidam, bardosh kerak bo'ladi. Buni yana dunyo degan juldur chopon metaforasi orqali ifodalaydi, bu juda chuqur mulohaza, asli chopon sovuqdan saqlaydigan kiyim, dunyoni esa juldur, yirtiq kiyim, ya'ni choponga qiyos qiladi.

Ammo juldur bu xorigan, charchagan, ishdan chiqqan befoyda holatni bildiradi. Shunday qilib, dunyo so'zi ortida o'zbek xalqining hayotga bo'lgan yondashuvi, sabr-fazilat, mehnat va qanoat bilan yashash falsafasini ko'ramiz. Lingvokulturologik jihatdan bu misralar xalq tafakkurining to'liq ko'zgusi bo'lib, ildizi bo'lib ularni o'rganish milliy ruh, til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Farida Afro'zda har bir obraz o'zbek xalqining tarixiy, diniy va madaniy, ma'rifiy tajribasini ifodalab keladi, u hatto misralarida metaforalarni joylashtirishni ham noan'anaviy tarzda yetkazadi..

Yoki yana bir misol,

**Tulki-ku, tumshug'dan ilinar, shaksiz,
Bo'rining og'zi qon yesa-yemasa,
Tegirmondan butun chiqar bu Odam.**

Ushbu tasbeh xalqona, o'zbek mentalitetiga xos metafora bo'lib, frazeologik ifoda bilan boyitilgan. "Tulkiku tumshug'idan ilinar shaksiz", ya'ni tulkinging tumshug'i - asliyatda ayyorlik, makr, aldov timsoli sifatida berilgan.. Bu yerda "shaksiz ilinar" degani, tulki og'zini ochsa ham, hatto yutsa ham aybli - ya'ni, aybdor ko'rinishida shubha uyg'otadi.

Lingvokulturologik jihatdan bu - ayyor, ishonib bo'lmaydigan odamga ishoradir. "Borining og'zi qon yesa yemasa", "Borining og'zi qon" - asli bu maqol. "Bori bu yerda kuchli, jabr-zulm qiluvchi inson timsoli sifatida talqin etilgan. Lingvokulturologik jihatdan bu - kuchli odamga nisbatan ijtimoiy haqiqatni ifoda etadi. O'zbek xalqining kuch va adolatga bo'lgan munosabatini ko'rish mumkin. "Tegirmondan butun chiqar bu odam", "Tegirmon" - xalqimiz tilida hayot sinovi, "butun chiqish" esa zarar ko'rmaslik, tinch yashash ma'nolarida kelgan. Bu odam har qanday vaziyatda, umuman sinovlardan aziyat chekmaydi, jabr ko'rmaydi, omadli yoki himoyalangan kimsa sifatida talqin etilgan. Bu orqali hayotda ba'zan adolatsizlik - makkor odamlar sinovlardan oson o'tib ketadi, degan xalqona falsafiy fikrni ham o'qish mumkinligi uyg'unlashadi.

Mazkur tasbehlardagi badiiy obrazlar nafaqat individual xarakterga ega, balki ular o'zbek xalqining ko'p asrlik kognitiv tajribasini go'yo o'zida mujassamlashtirib bergan. Masalan, tulki, bo'ri, tegirmon kabi obrazlar o'ziga xos arxip darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ular faqat estetik maqsadga emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy va axloqiy maqsadga ham yo'naltirilgan deyish mumkin..

Tulki - xalq tilida doimiy salbiy konnotatsiyaga ega. Bu obraz odatda ijtimoiy norozilik, ishonchsizlik yoki kulgili, insofsizlik, olg'irlik holatlarini tanqid qilish uchun qo'llanilgan.

Bo'ri - kuch va shafqatsizlikning timsoli bo'lib, o'z manfaati yo'lida har qanday vositani oqlovchi shaxslarni ifodalashda ishlatiladi.

Tegirmon - madaniy konnotatsiyada hayotiy sinovlar, vaqt va sabr, shuningdek taqdir ramzi sifatida talqin qilinadi.

Bu obrazlar orqali xalq tomonidan go'yo axloqiy va ijtimoiy baholash tizimi shakllantirilgan desak bo'ladi. Bu misralarda qo'llangan leksika nafaqat kommunikativ vosita uchun, balki axloqiy me'yorlarni ifodalovchi mexanizm vazifasini bajarishga qaratilgandir.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Afro'zona tasbehlarda o'zbek xalqining: hayotga realistik, adolatga chanqoq, inson tabiatini teran tushunishga asoslangan madaniy-falsafiy qarashlari mujassamdur. Jamiyatdagi tengsizlik, masalan, ba'zi odamlar har qanday sinovdan butun chiqadi, ba'zilari esa doim aybdor bo'ladi. Bu misralarda o'zbek xalqi madaniy ongida shakllangan doimiy stereotiplar, ijtimoiy adolatga munosabat kabi tushunchalar metaforalar bilan, lingvokulturologik birliklar bilan uyg'unlashtirilgan.

Farida Afro'z tasbehlari lingvokulturologik birliklar, metaforalar bilan ifodalanib, she'riyatda milliy kaloritning ayrocha rang-barang turlari tasnifini shakllantiradi, bu esa shoiraning o'ziga xos tajribasidan, ijodda noan'anaviylik tamoyilini boshlab berganidan dalolat beradi. Bu misralarda berilgan metaforalar esa she'riyatning nafaqat til bezagi, balki dunyoqarashni aks ettiruvchi vosita sifatida, qanday samarali ishlatilishini amaliy ahamiyatini ham belgilab beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бўтаева Фарида Афрўз. Ўзимни соғиниб... тасбеҳлар. “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. Тошкент. 2023.
2. Valiyeva G.X. O'zbek xalq maqollarida milliy mentalitet ifodasi.
3. Lingvist. – Toshkent, 2014. – 125 b.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособия для студентов высших учебных заведений. - М., 2001.
5. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.; Школа “Языки русской культуры” 1996.
6. Topildiyeva F. Farida Afro'z she'riyatida millat ruhiyati va til. “New renaissance” international scientific journal. Toshkent. 2023.
7. Topildiyeva F. O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning o'rganilishi.